

## AFORIZMLAR VA HIKMATLI SO'ZLAR MAZMUN VA MOHIYATI

*Andijon davlat chet tillari institute  
nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi  
Muxtarova Ozodaxon Urumbayevna*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamda aforizmlar, hikmatli so'zlar mazmuni va mohiyati haqida qisqacha fikr bildirib o'tdim va imkon qadar ularga berilgan ta'riflarni izohlashga harakat qildim.

**Kalit so'zlar.** Aforizmlar, hikmatli so'zlar, ilmiy, falsafiy, tarixiy, badiiy asarlar

Aforizm (g'a'horisuos- hikmatli so'z) chuqur mazmunga ega bo'lgan bir fikrning qisqa, muxtasar ifodasi aks etgan hikmatli so'zlardir.

**Hikmatli so'zlar** — tugal fikrni anglatuvchi, o'tkir mazmunli qisqa va lo'nda ibora, bayt, jumla. Xalq maqollaridan farqli ravishda Hikmatli so'zlar kelib chiqishi jihatidan ma'lum bir shaxs (yozuvchi, shoir, publitsist, faylasuf, olim, davlat arbobi va boshqalar)ga mansub bo'lib, individualligini saqlab qoladi. Hikmatli so'zlar ning mustaqil janr shaklidagi namu-nalari bilan birga ilmiy, falsafiy, tarixiy hamda badiiy asarlar tarkibida uchraydiganlari ham bo'ladi. Ba'-zan asar boshdan-oyoq Hikmatli so'zlardan iborat bo'lishi ham mumkin (Forobiy va boshqalar). Alisher Navoiyning ayrim asarlari Hikmatli so'zlarga boy ("Nazm ul-javohir", "Arbain", "Mahbub ul-qulub" va boshqalar). Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek adabiyotida Hikmatli so'zlarning ko'p qismi pand-nasihati, o'git, tanbeh shakllarida bo'ladi.<sup>1</sup>

Mas: Do'stlik, sadoqatga belingni bog'la,

Gina, malomatdan tilingni bog'la. [Sa'diy Sheroziy](#)

Xalq jonli tiliga, maqollarga yaqin Hikmatli so'zlar ham ko'p uchraydi. Mas, "O'qsiz soldat — qilichsiz qin" (Oy-bek), "Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan osh bo'lmas" (A.Qahhor). Ba'zi Hikmatli so'zlar shaklan quyma holga kelib, om-maviy qo'llanishga o'tgach, maqolga aylanib qoladi.

Mas: Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim. [Alisher Navoiy](#)

O'zbek yozuvchilaridan Hamza, A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, H.Olim-jon, A.Qahhor, Shayxzoda kabi san'-atkorlar o'z asarlarida Hikmatli so'zlarning zamonaviy namunalarini yaratib, o'zbek adabiy tilining rivojiga samarali hissa qo'shdilar.

Aforizm so'zi har bir inson uchun turli xil tushunchaga ega. Kimdir uni o'z kayfiyatini ko'tarish uchun o'qisa, kimdir hayot tajribasini oshirishga va

<sup>1</sup> "Hikmatli so'zlar" [O'zME. H-harfi](#) Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

donishmandlardek fikrlash uchun o'qiydi, kimdur esa kerakli vaqtda, davralarda ushbu aforizm so'zlarini ishlatish uchun o'qiydi.

### **Xo'sh aforizmlar bizga nima beradi va nima uchun kerak?**

Aforizm - bu so'zlardan tashkil topgan, qachonlardir buyuk allomalar, shoirlar tomonidan aytilgan chuqur ma'noli gapdir. Lekin ushbu so'zlarni nafaqat allomalar yoki shoirlar ishlatishgan, balki oddiy oramizdagi yoshi ulug' insonlar ham ishlatishadi.

### **Aforizmlar: misol uchun.**

Ayrim aforizmlar bizlarga yashashni o'rgatadi. Misol uchun, "Sening munosabating, sening darajangni aniqlab beradi", Leonardo Da Vinchidan "Agar temir ishlatilmasa, zanglaydi. Agar suv harakatlanib turmasa, ayniydi. Agar kishi fikrlamasa, aql bilan ham shunday holat yuz beradi.". Ushbu aforizmlarda hayot qonuni jamlangan bo'lib tan olish kerak ular bizni to'g'ri yashashga undaydi.

"Aforizm - bu piruetni ijro etadigan fikr." Ushbu so'zlar belgiyalik yozuvchi, usta aforist Joris de Brunga tegishli. Darhaqiqat, ham og'zaki, ham yozma nutqning go'zalligi va mahoratligini ushbu yorqin fikrlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Yunonchadan tarjima qilingan aforizm "ta'rif" degan ma'noni anglatadi va lakonik unutilmas shaklda aytilgan yoki yozilgan va boshqa odamlar tomonidan qayta-qayta takrorlangan asl to'liq fikrdir.

Aforizmlarning juda ko'p misollari bor, shulardan biri: "Agar siz hamma narsani pulga sotib olish mumkin deb o'ylasangiz, demak, siz ular uchun hamma narsaga tayyormiz." Og'zaki fikrni qabul qiladigan kontekst. tinglovchilar yoki muallifni o'rab turgan o'quvchi. Masalan: "Yaxshi aforizmlar - bu jozibali qobiqdagi achchiq dori-darmondir, u ta'mni xafa qilmasdan davolaydi" (V. Shvebel).

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мухтарова О.У. Гарб ва Шарк халклари «канотли сузлари» ва уларнинг узига хос хусусиятлари
2. Fan, ta'lim va innovatsion rivojlanish istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
3. [www.academiascience.org](http://www.academiascience.org)
4. Озодахон Урунбаевна Мухтарова "ҚАНОТЛИ СЎЗЛАР"НИ БИР ТИЛДАН ИККИНЧИ БИР ТИЛГА ЎТИРИШ МУАММОЛАРИ
5. "ILM-FAN VA TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR"
6. MAVZUSIDAGI 12-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI
7. [www.academiascience.uz](http://www.academiascience.uz)
8. Ismanova O.U. XORIJIY TILLARNI OQITISHDA HAR BIR OQUVCHI BILAN INDIVIDUAL SHUGULLANISH VA KOPRIK TIL MOHIYATI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO ILMIY TATQIQOTLAR JURNALI 2022.

- [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation\\_for\\_view=uB4jVe8AAAAJ:9yKSN-GCB0IC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:9yKSN-GCB0IC)
9. Ismanova O.U. TURLI TIZIMLI TILLARDA TARJIMON MAHORATI. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2023
10. [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation\\_for\\_view=uB4jVe8AAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:d1gkVwhDpl0C)
11. O. ISMANOVA. NEMIS VA OZBEK TILLAR KESIMIDA TARJIMONNING TARJIMADA LEKSIK SINONIMLARDAN TANLAB FOYDALANISH USLUBLARI Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2023 21ноя
- [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation\\_for\\_view=uB4jVe8AAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uB4jVe8AAAAJ&citation_for_view=uB4jVe8AAAAJ:2osOgNQ5qMEC)
12. Odinaxon Ismanova. NEMIS TILIDAN O`ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TARJIMON MAHORATI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций
13. 2023 2 ноя (93-97)
14. [https://scholar.google.ru/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=Ismanova+Odinaxon&oq=](https://scholar.google.ru/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=Ismanova+Odinaxon&oq=)